

## **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yil I-choragi davomida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tartibga solish to‘g‘risida AXBOROT**

Komplayens xizmati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 121-moddasi talablari va Jamiyatning 2023-yil 27-apreldagi 214-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomi asosida **manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini** o‘rganish, ularga baxo berish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarni belgilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida **2024-yil I-choragi davomida to‘ldirilgan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha** deklaratasiyalar tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar natijasi bo‘yicha **“Qizilqum” kon boshqarmasida** bitta xolatda hamda **Navoiy mashinasozlik zavodi** ishlab chiqarish birlashmasida bitta xolat jami ikki xolat Komplayens xizmati tomonidan aniqlangan.

Yuqoridigi ikki xolat yuzasidan “NKMK” AJ ning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati va Komplayens xizmati to‘g‘risidagi Nizom tamoyillari va talablariga ko‘ra Jamiyatning 2021-yil 23-dekabrdagi 60-sonli buyrug‘iga 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” hamda 2023-yil 27-apreldagi 214-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomga belgilanga muddat va tartib natijasi bo‘yicha qo‘sishma axborot kiritilib boriladi.